

TO'QIMACHILIK KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI BOSHQARISH JARAYONI VA TIZIMI

Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi

Farg'ona davlat universiteti doktoranti, i.f.f.d., dotsent ORCID: 0000-0003-1132-6439

Annotatsiya: Maqolada to'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish jarayoni va tizimining nazariy hamda amaliy asoslari tahlil qilingan. Raqobat muhitining kuchayib borishi, global bozor talablarining o'zgarishi, texnologik modernizatsiya va innovatsion jarayonlarning jadallashuvi sharoitida korxonalarda raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: raqobatbardoshlik, to'qimachilik korxonalari, boshqaruv jarayoni, boshqaruv tizimi, strategik boshqaruv, innovatsion rivojlanish, texnologik modernizatsiya, raqobat ustunliklari, resurslardan samarali foydalanish, bozor muhiti, baholash indikatorlari, barqaror rivojlanish.

Annotation: The article analyzes the theoretical and practical foundations of the process and system of managing the competitiveness of textile enterprises. The effectiveness of management mechanisms aimed at ensuring competitiveness in the context of intensifying competition, changing global market requirements, technological modernization, and the acceleration of innovation processes is examined.

Keywords: competitiveness, textile enterprises, management process, management system, strategic management, innovation development, technological modernization, competitive advantages, efficient resource utilization, market environment, assessment indicators, sustainable development.

Annotatsiya: V state proanalizirovani teoreticheskie i prakticheskie osnovy protsessa i sistemy upravleniya konkurentosposobnostyu tekstilnyx predpriyatiy. Izuchena effektivnost upravlencheskix mexanizmov, napravlennyx na obespechenie konkurentosposobnosti predpriyatiy v usloviyax isleniya konkurentnoy sredy, izmeneniya trebovaniy globalnogo rynka, texnologicheskoy modernizatsii i aktivizatsii innovatsionnyx protsessov.

Klyuchevye slova: konkurentosposobnost, tekstilnye predpriyatiya, upravlencheskiy protsess, sistema upravleniya, strategicheskoe upravlenie, innovatsionnoe razvitiye, texnologicheskaya modernizatsiya, konkurentnye preimushchestva, effektivnoye ispolzovanie resursov, rynochnaya sreda, indikator otsenki, ustoychivoe razvitiye.

KIRISH.

To'qimachilik korxonalarida raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy omili mahsulot raqobatbardoshligi hisoblanadi. To'qimachilik korxonalarining

raqobatbardoshligini boshqarish tizimini ishlab chiqishda mahsulotlarning sifati va narxiga katta e'tibor qaratish zarur. Bunda mahsulotning sifat ko'rsatkichlariga ya'ni foydalanishdagi imkoniyatlariga, estetik ko'rinishiga, xizmat muddatiga, mato xususiyatini tez o'zgartirmasligi kabilarga e'tibor berish zarur.

Mahsulotlarning bozorda raqobat afzalliklarini saqlab qolishi uchun raqobatbardoshlikning asosiy ko'rsatkichlarini rivojlanish davrini prognoz qilish talab etiladi, bu mahsulotlarning raqobat ustunligi xususiyatlariga erishish imkonini beradi. Prognozlash natijasidagi aniqlangan ustunlik korxonaning raqobatbardoshligini boshqarishning samarali tizimini yaratishga xizmat qiladi.

To'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish tizimini ishlab chiqishda korxonalarning umumiy salohiyatidan kelib chiqish zarur, bunda ishlab chiqarish quvvati, jihozlarning texnik darajasi, ishchi-xodimlar malakasi, korxonaning moliyaviy holati, ishlab chiqarish jarayonlarini shakllari va usullariga e'tibor qaratish kerak. Korxonaning raqobatbardoshligini boshqarish barcha bo'g'inlardagi boshqaruv jarayonlarini o'z ichiga oladi, jumladan, innovatsiyani boshqarish, mahsulot va mehnat sifatini boshqarish, mahsulotni ishlab chiqarish va sotishni boshqarish, narxni boshqarish, xodimlarni boshqarish va boshqalar. Sanoat korxonalarining bir-biridan raqobat ustunligi bir qator omillar yordamida shakllanishi mumkin, bularga, nomoddiy yoki moddiy resurs, xom-ashyo, innovatsiya, xarajatlar, ishchi kuchi, texnika-texnologiya, sifat, narx, rentabellik kabilar ta'sir ko'rsatishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqobatbardoshlikni mamlakat, tarmoq, korxona, mahsulot, kadrlar bo'yicha bog'liqliklarga bo'lish mumkin. Birgina, «Korxona raqobatbardoshligi» va «Mahsulot raqobatbardoshligi» o'rtasida o'zaro yaqin aloqalar mavjud, chunki korxona raqobatbardoshlik darajasiga erishishda mahsulot raqobatbardoshlik xususiyati bevosita bog'liq hisoblanadi. Mahsulot raqobatbardoshligini tasniflashda ham muayyan ta'rif ishlab chiqilmagan, N.V.Yeremeeva va S.L.Kalachev tadqiqot ishlarida "Mahsulot raqobatbardoshligi murakkab xususiyatlar majmuidir, mahsulotlarning sifati (iste'mol qiymati), iste'mol bahosi, sotuvchi korxonaning marketing va tijorat faoliyati samaradorligi, iste'molchini mahsulotning tashqi ko'rinishlarga va sotuvchi korxonaning faoliyatiga ma'lum reaksiyasi hisoblanadi" deb ta'rif berishgan bo'lsa, X.A.Fasxiev esa "Raqobatbardosh mahsulot iste'molchini qoniqtiradigan narxda raqiblarga o'xshash analoglardan ustun bo'lishi kerak" deb hisoblaydi.

Mahalliy tadqiqot ishlarida raqobatbardoshlikka erishish va raqobat ustunliklarini ta'minlash bo'yicha salmoqli ishlar bajarilgan. Har bir korxonaning doimiy maqsadi raqobatbardoshlikka erishishdir. To'qimachilik korxonalari nafaqat raqobatbardoshlikka erishish choralari ko'rishi, balki raqobatbardoshlikni boshqarish tizimini ham ishlab chiqishlari bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Boshqaruv bu sub'ektlar, korxonalar tomonidan kishilarga va iqtisodiy

ob'ektlarga kutilayotgan natijaga erishish, ularni xatti-xarakatini yo'naltirish maqsadida ularga ongli ta'sir ko'rsatishdir. Demak, raqobatbardoshlikni boshqarish tizimi muayyan boshqaruv mexanizmini ishlab chiqishni talab etar ekan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash uchun oqilona boshqaruv qarorini qabul qilish, avvalgi tajriba va taxlillarga tayanish xar doim xam samarali bo'lmazligi mumkin. Shuning uchun shunday bir mexanizm ishlab chiqish kerakki, u korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlashga katta xizmat qilsin. Korxonaning raqobatbardoshligini boshqarish tizimi - bu ichki va tashqi manfaatlar nuqtai-nazaridan kuchli raqobat muhitida xavf soluvchi tahdidlarga munosib javob berish imkoniyatini bera oladigan mexanizmdir. Korxonaning raqobatbardoshligini boshqarish tizimi bozordagi raqib mahsulotlarga nisbatan ustunlik tomonlarini kengaytirish, farqli ijobiy xususiyatlarini oshirish imkoniyatini beradi.

Korxonaning raqobatbardoshligini oshirish uchun nafaqat eng muhim ko'rsatkichlar va omillarni aniqlash, balki ushbu parametrlarni muntazam ravishda tahlil qilish kerak. Tahlilning asosiy vazifasi bo'lib o'rganilayotgan ob'ektning raqobatbardoshlik darajasi tarkibidagi korxonalarning mutanosibligini aniqlash, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish hisoblanadi. Tahlillar yordamida aniqlangan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda yoki mahsulotga ko'ra, matritsali, ekspert baholash, kombinatsion kabi usullar yordamida korxonalarning raqobatbardoshlik darajasi aniqlanadi. Korxonalarning raqobatbardoshlik darajasi aniqlangandan so'ng, korxona xolatiga mos strategiya ishlab chiqiladi va qo'llash bo'yicha chora-tadbirlar ko'riladi.

To'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish jarayonida korxonaning bozordagi haqiqiy darajasini baholash, korxonaning raqobatbardoshligini oshirish vositalarini aniqlash va munosib strategiya ishlab chiqish juda muxim bosqichlar hisoblanadi. Korxonalarning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda bozorning talablari ya'ni iste'molchilarning mahsulotga bo'lgan o'ziga xos alohida talablari rivojlanayotganligini inobatga olish juda muhimdir.

Korxona raqobatbardoshligini boshqarish tizimining asosiy maqsadi ichki va tashqi muhitda tashkiliy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa o'zgarishlarda uning hayotiylikini va barqaror ishlashini ta'minlashdan iborat. Bunga erishish uchun korxona raqobatbardoshligini boshqarish quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan bo'lishi kerak:



1.6-rasm. To'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish jarayoni

korxonaning raqobatdoshligini oshirishga ta'sir qiluvchi salbiy (zararli) omillar sonini zararsizlantirish (yo'q qilish) yoki cheklash;

korxona raqobatbardosh ustunliklarini oshirishga ta'sir etuvchi ijobiy omillardan foydalanish;

bozor uning tashqi muhitdagi o'zgarishlarga keng va vaqtincha moslashishi asosida korxonaning raqobatbardoshligini oshirish va takomillashtirish;

korxonaning raqobatdoshligini oshirishga ta'sir qiluvchi salbiy (zararli) omillar sonini zararsizlantirish (yo'q qilish) yoki cheklash;

korxona raqobatbardosh ustunliklarini oshirishga ta'sir etuvchi ijobiy omillardan foydalanish;

bozor uning tashqi muhitdagi o'zgarishlarga keng va vaqtincha moslashishi asosida korxonaning raqobatbardoshligini oshirish va takomillashtirish;

boshqaruv harakatlarini va qarorlarini moslashuvchanligini ta'minlash, muayyan bozorda raqobatning salbiy va ijobiy omillari ta'sirini sinxronlashtirish.²⁰

Yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan to'qimachilik korxonalarida raqobatbardoshlikni boshqarish tizimini ishlab chiqish va yuqori darajada ijrosini tashkil etish mexanizmini yo'lga qo'yishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Avvalo, to'qimachilik korxonalarida raqobatbardoshlikni boshqarish tizimi qanday yo'lga qo'yilganligini aniqlash lozim.

XULOSA:

Korxonaning tashqi muhitdagi jiddiy o'zgarishlarga javob beradigan chora-tadbirlari va ularni raqobatbardoshlik darajasiga ta'siri quyidagilardan iborat:

²⁰ Гранатуров В.М., Кораблинова И.А. Управление конкурентоспособностью предприятий: учебн. пособ. – Одесса: ОНАС, 2016. – 30 с.

muayyan bozorning belgilangan ulushini egallash imkonini beradigan korxonaning raqobatbardoshlik darajasini aniqlash va asoslash;

korxonaning raqobatbardoshligini oshirish usullarini tanlash;

korxona raqobatbardoshlik darajasini ko'tarish uchun turli strategiyalarni shakllantirish;

Korxona raqobatbardoshligini boshqarishning maqsadi, raqobat muhitida uning muvaffaqiyatli ishlashi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash va har qanday iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa o'zgarishlar yuzasidan mamlakat ichkarisida va tashqarisida ushbu korxonaning boshqalarga nisbatan ustunliklarini ta'minlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Gordon, I. and McCann, P. 2000. Industrial clusters: complexes, agglomeration and or social networks? Urban Studies 37 (3): – p. 510.

2. Druker P. Postkapitalisticheskoe obshchestvo. Novaya postindustrialnaya volna na Zapade / Per. s angl. – M.: Academia, 1999. – 288 s.

3. Druker P. Praktika menedjmenta / Per. s angl. – M.: Vilyams, 2007. – 398 s.

4. Drucker, P. (1977). People and Performance: The Best of Peter Drucker on Management. New York: Harper & Row. 317 p.

5. Mamatov B.S., Xujamkulov D.Yu., Nurbekov O.Sh.. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. -T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 283 bet.